

GEOGRAFIYA DARSLARIDA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Mukumova H – *Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi. O'zbekiston.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada geografiya darslarida axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan (AKT) samarali foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritiladi. Zamonaviy raqamli vositalar — multimedia taqdimotlari, interaktiv xaritalar, elektron darsliklar, onlayn platformalar va geoinformatsion texnologiyalar — o'quvchilarning fan bo'yicha bilimlarini chuqurlashtirish, mantiqiy fikrlashini rivojlantirish hamda dars jarayonining samaradorligini oshirishdagi o'rni ko'rsatib beriladi. Shuningdek, AKTni qo'llash orqali ta'lim jarayonini individuallashtirish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish, geografik ma'lumotlarni vizual va interaktiv tarzda o'zlashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Maqolada o'qituvchilar uchun amaliy tavsiyalar, AKTdan foydalanishning afzalliklari va duch kelinadigan muammolarni bartaraf etish yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Geografiya, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, AKT, interaktiv xarita, multimedia, GIS, elektron darslik, raqamli ta'lim, innovatsion pedagogika, ta'lim texnologiyalari, onlayn platformalar.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ ГЕОГРАФИИ

Мукумова Х. – преподаватель Каршинского государственного университета.
Узбекистан.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты эффективного использования информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) на уроках географии. Показана роль современных цифровых средств – мультимедийных презентаций, интерактивных карт, электронных учебников, онлайн-платформ и геоинформационных технологий – в углублении знаний учащихся по предмету, развитии логического мышления и повышении эффективности учебного процесса. Анализируются возможности индивидуализации учебного процесса, повышения интереса учащихся к науке, наглядного и интерактивного освоения географической информации с помощью ИКТ. Даны практические рекомендации для учителей, показаны преимущества использования ИКТ и пути преодоления возникающих проблем.

Ключевые слова: География, информационно-коммуникационные технологии, ИКТ, интерактивная карта, мультимедиа, ГИС, электронный учебник, цифровое образование, инновационная педагогика, образовательные технологии, онлайн-платформы.

USE OF INFORMATION COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN GEOGRAPHY LESSONS

Mukumova H – Lecturer at Karshi State University. Uzbekistan.

Abstract: This article discusses the theoretical and practical aspects of the effective use of information and communication technologies (ICT) in geography lessons. The role of modern digital tools - multimedia presentations, interactive maps, electronic textbooks, online platforms and geoinformation technologies - in deepening students' knowledge of the subject, developing logical thinking and increasing the efficiency of the lesson process is shown. It also analyzes the possibilities of individualizing the educational process, increasing students' interest in science, and mastering geographic information visually and interactively through the use of ICT. The article provides practical recommendations for teachers, the advantages of using ICT, and ways to overcome the problems encountered.

Keywords: Geography, information and communication technologies, ICT, interactive map, multimedia, GIS, electronic textbook, digital education, innovative pedagogy, educational technologies, online platforms.

Maktab o'sib kelayotgan yosh avlodni ta'lim va tarbiyaga chorlovchi maskan hisoblanada. Ta'lim va tarbiya maktabda birgalikda, uzviy aloqada olib boriladi. Dastlab tarbiya, keyin ta'lim. Tarbiya ta'lim olishga yo'l boshlovchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Umumiy o'rta ta'limda ta'lim tarbiyaviy vazifalarni hal qilishda barcha o'quv fanlari singari geografiya o'quv Bitiruv malakaviy ishningining ham ahamiyati katta bo'lib, bunday ma'suliyatli vazifani amalga oshirishda geografiya o'qituvchisidan mahorat talab qiladi. Mamlakatning ertangi kuni, dunyoqarashi o'zgargan, zamonaviycha fikrlaydigan, muvaffaqiyatli ish yuritadigan, yuksak malakali, chuqur bilimli yoshlarni tarbiyalash-geografiya o'qituvchilariga ham ko'p jihatdan bog'liqdir.

Internet xizmatining tobora yuksalib borayotgani, o'qitish jarayonida undan to'g'ri va unumli foydalanishga bo'lgan ehtiyoj yurtimiz ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyasining milliy strategiyasini izchil joriy etishni taqozo etmoqda. Ushbu strategiya ta'lim maskanlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlash orqali ta'lim sifatini oshirish, elektron o'quv darsliklarini yaratish, o'qituvchi va o'quvchilarning axborot-kommunikatsiya

texnologiyalaridan foydalanish bilim va ko'nikmalarini oshirish kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Keyingi yillarda maktab ta'lim-tarbiya tizimida zamonaviy ta'lim turlaridan axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. AKTdan foydalanishning amaliy ahamiyati shunda-ki, u o'qituvchining mehnat unumdorligini va o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Texnika vositalari qo'llanilgan darslarda bilimlarni o'zlashtirish jarayoni maqsadga muvofiq xolda amalga oshiriladi, o'quv axboroti esa o'quvchilarga qulay ko'rgazmali shaklda yetkaziladi.

Shuningdek texnik vositalari yordamida o'tilgan har bir dars mavzuni bayon qilish sur'atini oshiradi, vaqtni tejashga imkon beradi. Bunday darslar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi hamda voqea va hodisalarni bir-biri bilan taqqoslash, ular orasidagi o'xshashlik va tafovutlarni aniqlashga yordam beradi. Ishlab chiqarish va kishilik jamiyatning turli jabhalariga zamonaviy axborot kommunikatsiya vositalari kirib kelganidek, ta'limda ham internet global kompyuter tarmog'ining rivojlanishi butun dunyo ta'lim tizimini takomillashtirish zamonaviy yo'nalishlarini ochilishiga sabab bo'ldi. Bu o'quv muassasalarining texnik ta'minotini keskin o'zgarishi, dunyoviy axborot resurslariga keng yo'l ochilishi o'qitishning zamonaviy shakl va usullaridan foydalanish zaruriyatini keltirib chiqardi. O'rta maktabda geografiya o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyalarini qo'llash masalasi nihoyatda ko'p qirralidir. Maktabda geografiya o'qitishning 3 asosiy yo'nalishi ajratib ko'rsatiladi:

- geografiya darslarida informatsion texnologiyalarni qo'llash;
- o'quvchilarning darsdan tashqari mashg'ulotlarini tashkillashtirish uchun informatsion texnologiyalarni qo'llash;
- axborot texnologiyalaridan o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkillashtirish uchun foydalanish.

Kompyuter texnologiyalari dasturiy ta'lim g'oyalarini taraqqiy ettiradi, o'qitishning eng zamonaviy texnologik variantlarini kashf etadi, ular esa

zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiyalarning ulkan imkoniyatlarini ro'yobga chiqaradi. Kompyuter texnologiyalarini qo'llash hozirgi zamon geografiyasini fan va o'quv predmeti sifatidagi rivojining eng muhim komponentlaridan biridir.

Kompyuterli darslar - o'quv jarayonida zamonaviy zamonaviy yutuqlarga tayangan xolda didaktikaning so'nggi texnologiyalari asosida tashkil etiladigan darsdir. Bunday darslar o'quv materiallarini tez va oson o'zlashtirish imkonini beradi. Darslarni sifatli qilib yaratish murakkab jarayon, ammo istiqbollidir.

Ta'lim jarayonida multimediya texnologiyalaridan foydalanish deyilganda esa kompyuterga matn, tovush, videotasvir, grafik tasvirlarni va turli (multiplikatsiya) animatsiyalarni kiritish, chiqarish, qayta ishlash, saqlash, texnologiyalari tushuniladi. Multimedia texnologiyalaridan foydalangan xolda ularni namoyish etish yoki eshitish orqali olinadigan bilim ta'lim jarayoni deb tushuniladi.

Geografiya fani qadimiy yer to'g'risidagi fan bo'lganligi sababli tabiat, jamiyat, tabiiy jarayon va hodisalarni o'qitish jarayonida internet tizimidan samarali foydalanmog'imiz kerak. Internet tarmog'ida turli geografiya mavzulariga oid veb-saytlar mavjud bo'lib, ulardan aniq maqsadlarda foydalanish, zamonaviy saytlar ochish va ularning sonini ko'paytirish, shuningdek internetdagi bor mavzularni aynan ko'chirib olinishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohatlar tufayli O'zbekiston jamiyatning barcha sohalari, shu jumladan ilm-fan va ta'lim sohasini zamonaviylashtirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Shu jihatdan jahon tajribasiga tayangan xolda geografiya fanini o'qitishda ta'limning ilg'or usullari, zamonaviy axborot texnologiyalari va internetdan foydalanish ta'lim jarayoni samaradorligi va sifatini oshirishi bilan bir qatorda respublikaning jahon informatsion hamjamiyatiga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga ham keng imkoniyatlar yaratib beradi. O'quvchilarning kompyuter savodxonligini oshirish, maktabda zamonaviy kompyuter texnologiyalarini qo'llash pedagogik jarayonni mukammallashtirishning imkonlarini beradi. Jumladan O'zbekiston tabiiy

geografiyasini o`qitishda texnika vositalaridan foydalanish o`quvchilarning shu darsga bo`lgan qiziqishini kuchaytiribgina qolmay, ma`naviy-siyosiy jihatdan rivojlanishiga katta ta`sir ko`rsatadi. Masalan, O`zbekistonning asosiy foydali qazimalari mavzusini o`qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanilgan darsda o`quv axboroti o`quvchilarga qulay ko`rgazmali shaklda yetkazilish bilan birga o`quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. Bunda displeyda “O`zbekiston hududidagi foydali qazilmalari” navbati bilan ketma-ket joy ola boshlaydi. ko`mir, neft, gaz, oltingugurt, fosfor, mis rudasi, alyuminiy, oltin, temir, grafit, osh tuzi, kaolin, o`tga chidamli gil, oxaktosh, granit, marmar, gips, mineral suvlar zaxiralari va boshqalar. O`quvchi bu ma`lumotlarga ega bo`lgandan so`ng, navbatdagi tugmachani bosadi. “O`zbekistonning yoqilg`i foydali qazilmalari” degan yozuv paydo bo`ladi va unga ko`mir, neft, gaz o`z ifodasini topadi.

O`quvchi navbatdagi tugmachani bosgandan so`ng, displey ekranida “O`zbekistonning yozuvsiz xaritasi” namoyon bo`ladi va unda kartaning yuqorisiga ko`mir qazilma boyligi nomi pastiga esa qayerdan qazib olinishini, masalan toshko`mir Sharg`un va Boysundan, qo`ng`ir ko`mir Angrendan qazib olinadi. Yozuvsiz kartada esa ularning joylashish o`rnida shartli belgisi paydo bo`ladi. Bu jarayon shu tariqa davom eta boshlaydi. Neft: Farg`ona vodiysining Andijon, Polvontosh, Janubiy Olamushuk, Xo`jaobod, So`x Mingbuloqda, Surxondaryoda, Ko`kayti, Lalmikor, Xovdog`, Qashqadaryoda, Ko`kdumaloq tabiiy gaz, Gazli, Jarqoq, Muborak, Sho`rtan va xokozo. Ekranda mavzu yuzasidan ko`rsatish tartib bilan davom ettiriladi. O`quvchilar “rangli va nodir” metallar bilan tanishtiriladi. So`ngra displey ekranida “O`zbekiston foydali qazilmalari” mavzusi bo`yicha savollar va test savollari hamda javoblari ketma ket tartib bilan ko`rinadi. Bunday darslarda o`qitishning kompyuter texnologiyasi yordamida axborotni tayyorlash hamda uning vositasida o`quvchiga yetkazishda. o`qituvchidan va o`quvchilardan bir xil kompyuter savodxonligini talab etiladi.

Insoniyat XX asr nihoyasida bir turkum muammolarga duch keldikim, ular bevosita axborot texnologiyalarining jadal sur`atlar bilan rivojlanishiga bog`liq.

Internet tarmog'idan noto'g'ri foydalanish salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi. Bunday noxushliklarning oldini olishda umumiy o'rta ta'lim maktablarining ta'lim tarbiya jarayonlarida AKTdan keng va unumli foydalanish lozim.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har bir darsni AKTdan foydalanib tashkil qilinishiga erishish lozim, bu davr talabi, shundagina o'quvchilar yanada chuqur va puxta bilim egallay oladilar.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohatlar tufayli O'zbekiston jamiyatining barcha sohalari, shu jumladan ilm-fan va ta'lim sohalarini zamonaviylashtirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Shu jihatdan jahon tajribasiga tayangan holda Geografiya fanini o'qitishda ta'limning ilg'or usullari, zamonaviy axborot texnologiyalari va Internetdan foydalanish ta'lim jarayoni samaradorligi va sifatini oshirishga ham keng imkoniyatlar yaratib beradi.

O'rta maktabda geografiya o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyalarini qo'llash masalasi nihoyatda ko'p qirralidir. Maktabda geografiya o'qitishning uchta asosiy yo'nalishi ajratib ko'rsatiladi: birinchidan, bu geografiya darslarida informatsion texnologiyalarni to'g'ridan-to'g'ri qo'llash, bunda eng ko'p amaliy mashg'ulotlarda qo'llanadi; ikkinchidan, o'quvchilarning darsdan tashqari mashg'ulotlarini tashkillashtirish uchun informatsion texnologiyalarni qo'llash; uchinchidan, axborot texnologiyalari bilimga yo'naltirilgan bo'sh vaqtni ta'minlashga (bolaning aqliy rivojiga ko'maklashuvchi o'yinlar, elektron qomuslar kabi) qaratilgan.

Kompyuter texnologiyalarini qo'llash hozirgi zamon geografiyasini fan va o'quv predmeti sifatidagi rivojining eng muhim komponentlaridan biridir. Kompyuter texnologiyalari dasturiy ta'lim g'oyalarini taraqqiy ettiradi, o'qitishning eng yangi sinab ko'rilmagan texnologik variantlarini kashf etadi.

O'qitishning kompyuter texnologiyasi kompyuter yordamida axborotni tayyorlash hamda uning vositasida o'quvchiga yetkazishdir. Ammo ushbu jarayon yetarlicha murakkabdir, u o'qituvchidan va o'quvchilardan birday kompyuter savodxonligini talab etadi ya'ni, kerakli axborot ko'lamini olish, unga ishlov berish

yoki yaratishning texnik va dasturiy vositalarini qo'llashni bilish. O'quvchilarning kompyuter savodxonligini oshirishning yangi imkonlarini beradi.

Geografiya – informatsion fan. Boshqacha qilib aytganda, geografiyaning o'ziga xosligi shundan iboratki, geografik ta'limot o'zida ikki asosni jamlaydi: tabiiy va antropologik asos. Geografiya fani qadimdan yer to'g'risidagi fan bo'lib, tabiat, tabiiy jarayon va hodisalarni o'rganib kelgan. Geografiyani zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida o'qitish orqali avvalambor o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishni orttirish, ularning mustaqil ishlash va ijod qilishlari uchun imkoniyat yaratib, o'quv jarayonini takomillashtiriladi

Maktab geografiya kursi shunday tuzilganki, u o'quvchiga atrof muhit va uning tuzilishi haqida kengroq tasavvur berishi kerak, xuddi shunday vazifa boshqa tabiiy fanlar oldida ham turibdi. Umumta'lim davlat standartlari qanchalik jiddiy bo'lmasin, o'rtacha saviyali o'quvchi materiallarning barchasini «yodlab» ololmaydi. O'rta maktab hajmida o'rgatiladigan ma'lumotlar o'quvchilar uchun juda zarur, O'quvchi bu ma'lumotlar orasidagi o'zaro aloqalarni, o'xshashlik va farqlarini topib sababini tushuntirishi kerak.

Maktab geografiya kursi alohida ma'lumotlarni o'rganishdan iborat bo'lib qolmasligi uchun bu ma'lumotlarni o'quvchilar ongida hamisha to'liq anglangan, mantiqiy geoaxborot tizimlarini shakllantirish uchun kompyutorlardan keng foydalanish lozim. Komp'yuterlar imkoniyati juda katta, o'lgan miqdordagi xilma-xil va murakkab axborotlarni «xotira»sida saqlash qobiliyatiga ega. Bu ko'p geografik atama va nomlarni o'ziga qamragan tabiiy geografiya kurslarida, axborot ma'lumot tizimini yaratish va uni kompyuter xotirasiga yozishda qo'l keladi.

O'quv kompyuterida ma'lumotlar tayorlash, dars mashg'uloti o'tish ayniqsa, amaliy va mustaqil ish, grafik topshiriqlarini tayyorlash imkoniyatini beradi. Kompyuterlardan foydalanishda avvalo, dastur tuzish, uni tizimlash geografiya ta'limida uch bosqichda olib boriladi.

Birinchi bosqich: Kompyuter texnikasi uchun axborot- ma'lumot tizimi (bazasi) tayyorlash.

Ikkinchi bosqich: Axborot - ma'lumot tizimini tegishli kadrlar vositasida kompyuter vositasiga yozish.

Uchinchi bosqich: Kompyuterda yozilgan ma'lumotlardan ta'lim jarayonida foydalanish.

Xulosa: Geografiya darslarida axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish ta'lim jarayonining sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. AKT vositalari — interaktiv xaritalar, multimedia resurslari, elektron darsliklar va geoinformatsion tizimlar — o'quvchilarda geografik tafakkurni rivojlantirish, murakkab jarayon va hodisalarni ko'rgazmali tarzda tushuntirish hamda o'qitish samaradorligini oshirish imkonini beradi. Ushbu texnologiyalar yordamida o'quvchilar dars jarayonida faol ishtirokchi bo'lib, mustaqil izlanish va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Natijada geografiya faniga bo'lgan qiziqish ortadi, o'quvchilar o'zlashtirish darajasi yuqorilaydi va zamonaviy raqamli ko'nikmalarga ega bo'ladi. Shuningdek, o'qituvchi darsni innovatsion yondashuv asosida tashkil etish imkoniyatiga ega bo'lib, ta'lim jarayoni yanada interaktiv va samarali tus oladi. Demak, geografiyada AKTdan oqilona foydalanish kelajakda raqobatbardosh, bilimli va zamonaviy fikrlovchi yoshlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Muqumova H. I. Geografiya darslarida foydalaniladigan interfaol metodlar xususida //Экономика и социум. – 2023. – №. 3-2 (106). – С. 198-202.
2. Muqumova H. I., Toxtamishov A. Ta'limda innovatsion texnologiyalarning orni //Экономика и социум. – 2024. – №. 4-2 (119). – С. 320-324.
3. Djurayev M., Husenov J. Studies in geography, conflicts and solutions in applied geography //Journal of Geography and Natural Resources. – 2022. – T. 2. – №. 01. – С. 2428.
4. Safarov, I. B., and A. R. Raxmonov. "Biogeografiya fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar." Экономика и социум 1-2 (128) (2025): 428-431.
5. Qurbonov P. R., Botirov B. Z. The impact of global climate change on urban development //Экономика и социум. – 2025. – №. 5-1 (132). – С. 613-616.